



Konstitutsiya - oila mustahkamligining kafolati

Axundjanova Muxabbat Lazizovna

Toshkent shahar yuridik texnikum
"Mutaxassislik fanlari" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Konstitutsiyaning oilani mustahkamlashdagi ahamiyati tahlil qilingan. Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida Konstitutsiyada belgilangan qoidalar asosida himoya qilinadi va mustahkamlanadi. Unda oilaviy hayotni tartibga soluvchi asosiy prinsiplar – nikoh erkinligi, tenglik tamoyili, onalik va bolalikni himoya qilish masalalari yoritilgan. Shuningdek, maqolada davlatning oilaviy barqarorlikni ta'minlashga yo'naltirilgan amaliy choralari, jumladan, ijtimoiy dasturlar va qonunlar tahlil qilingan. Xulosa qismida Konstitutsiya qoidalarining bajarilishi jamiyatdagi ijtimoiy birdamlik va barqarorlikni mustahkamlashda muhim omil ekani ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, Oila, Oila mustahkamligi, Nikoh erkinligi, Tenglik tamoyili, Onalik va bolalikni himoya qilish, Ijtimoiy barqarorlik, Oilaviy qadriyatlar, Davlat kafolati, Huquqiy himoya

Oila – jamiyatning poydevori, millatning kelajagini belgilovchi eng muhim ijtimoiy institutdir. Har qanday davlatning rivojlanishi, uning barqarorligi va kuchi oilaviy qadriyatlarning mustahkamligiga bog'liq.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq oilaviy munosabatlarni qonun yo'li bilan tartibga solishga alohida e'tibor qaratildi. Xususan, asosiy Qonunimizning XVI bobi "Oila, bolalar va yoshlar" deb nomlanib, to'la oilaviy munosabatlarni huquqiy tartibga solishga bag'ishlangan. Jumladan, 76-moddada oila davlat va jamiyat muhofazasida ekanligi alohida belgilab qo'yilgan.



Darhaqiqat, davlatimiz oilalar mustahkamligi va barqarorligidan to‘la manfaaddordir. Oila kodeksida ham biron-bir shaxsning oilaga o‘zboshimchalik bilan aralashishiga yo‘l qo‘yilmasligi qat’iy belgilab qo‘yilgan. Mazkur kodeks yurtimizdagi 7,5 milliondan ortiq oilalar va ular huquqlarini to‘siqlarsiz amalga oshirish imkonini beradi. Bu huquqlarning himoya qilinishi esa har tomonlama kafolatlangan.

Shu bois, Konstitutsiyamizda oilaning muqaddasligi, uning mustahkamligi va himoyasi davlat darajasida kafolatlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76-moddasida “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini bo‘lib, u jamiyat va davlat muhofazasida bo‘ladi” deya ta’kidlangan. Ushbu norma oilani muhofaza qilish mas’uliyatini davlat zimmasiga yuklash bilan birga, uning qadriyatlarini saqlashga ham alohida urg‘u beradi.

Oila institutini mustahkamlashda Konstitutsiyaning o‘rni

Konstitutsiyamizda oilaviy munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy prinsiplar belgilangan:

1. Oilani shakllantirish erkinligi: Nikoh nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligi asosida tuziladi (76-modda). Bu esa majburiy nikohlarning oldini olish va shaxsiy erkinlikni himoya qilish uchun muhim kafolatdir.
2. Ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar o‘z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta’lim olishi, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar.

Davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalarni boqishni, tarbiyalashni, ularning ta’lim olishini, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishini ta’minlaydi, shu maqsadda xayriya faoliyatini rag‘batlantiradi. Bolalar va ayollarning huquqlarini himoya qilish: Konstitutsiyaning 77-moddasida davlatning onalik va bolalikni muhofaza qilishga oid majburiyatlari belgilangan. Bu, avvalo, oilada sog‘lom muhitni yaratishga ko‘maklashadi.



3. Oiladagi tenglik tamoyili: 78-moddada Farzandlar ota-onasining nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Bu oiladagi tenglik va o'zaro hurmatni mustahkamlashga xizmat qiladi.

4. Oilaning, onalik, otalik va bolalikning muhofaza qilinishi. Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir.

Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladi.

Bundan tashqari Konstitutsiyaning XIV bobiga yangi modda kiritilib, unda davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantiradi. Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta'lim olishga, sog'lig'ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi deb aytilgan.

Voyaga yetgan mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar.

Oilaning mustahkamligi uchun amaliy kafolatlar

Davlat tomonidan qabul qilinayotgan qonunlar va dasturlar Konstitutsiya tamoyillariga asoslanadi. Xususan:

Aholi bandligi va farovonligi: Oilaviy barqarorlikni ta'minlash uchun ish o'rinlari yaratish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari amalga oshirilmoqda.



Ta'lim va sog'liqni saqlash: Farzandlarning tarbiyasi va sog'lom o'sishi uchun bepul ta'lim va tibbiy xizmatlar tizimi kengaytirilmoqda.

Ayollarga ko'mak: Ayollarning jamiyatdagi rolini oshirish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan qator dasturlar ishlab chiqilgan.

Yoshlarni rahbatlantirish: Yoshlarni har tomonlama barkamol rivojlanishini ta'minlaydi va shart-sharoitlar aratadi.

Xulosa

Konstitutsiya oilaning nafaqat ijtimoiy hayotdagi o'rnini mustahkamlaydi, balki uning har tomonlama himoya qilinishini kafolatlaydi. Bu hujjatga asoslangan qonunlar va dasturlar oilalarni mustahkam, farzandlarni esa barkamol tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu boisdan, Konstitutsiyaning mazmun-mohiyatini chuqur anglab, unda belgilangan tamoyillarni amalda bajarish har bir fuqaroning burchi hisoblanadi. Bu burchni ado etish orqali nafaqat oilaviy, balki milliy birlik va barqarorlikni ham ta'minlaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent: "O'zbekiston", 2023 yil.
2. "O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi" – Toshkent: "O'zbekiston", 998 yil, 30 aprel.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ayollarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, 2020 yil.
4. Abdullayev, A. Davlat va huquq asoslari. Toshkent: "Sharq", 2005 yil.
5. O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ma'lumotlari, www.stat.uz.
6. Xolmatova, G. Oila va jamiyat: Huquqiy asoslar. Toshkent: "Adolat", 2019 yil.